

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov, O.Raxmatov Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	8
B.Shermuhammadov, D.Namozova Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli.....	13
B.Shermuhammadov, B.Baratov Bo'lajak o'qituvchilarni uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-madaniy fazilatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari	18
D.Yuldasheva, R.Bekmagambetova, Sh.Matkarimova Bolalar poetik matnlarini pedagogik dizayn vositasida o'rgatish.....	22
B.Qurbonova Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish	25
I.Siddiqov Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari	29
A.Xo'jayev Kadrlar tayyorlash sifatini monitoring qilishda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	33
X.Qodirov Professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lish tasniflari	38
B.Baydjanov Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash samaradorligi	42
A.Turaxanov Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talaba (kursant)larida jismoniy-taktik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	49
R.Madaliyev Talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati.....	52
X.Yulbarsova Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	56
A.Soyibnazarov Ta'limda yangicha yondashuv tahlili: smart ta'lim.....	62
S.Kamchiyev Ertalabki gimnastikani kichik va o'rta guruhlarda o'tkazish usullari va mohiyati.....	67
N.Mamatqulova Ta'limda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari	71
S.Sulaymanova Tasviriy san'at fanlarida perspektivaning muhim ahamiyati va uning qo'llanilish xususiyatlari.....	75
M.Aripjanova Professional ta'lim o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalariga talablar tahlili	80
D.Yo'ldosheva Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari	83
N.Dusimbetova Bo'lajak jurnalistlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati.....	88
T.Turgunbayev Harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda (kursantlarda) vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari	92
N.Yuldasheva Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish borasidagi metodik yondashuvlar	95

**PROFESSIONAL TA'LIM O'QUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARIGA
TALABLAR TAHLILI****АНАЛИЗ ТРЕБОВАНИЙ К ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ КОМПЕТЕНЦИЯМ СТУДЕНТОВ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ****ANALYSIS OF REQUIREMENTS FOR PROFESSIONAL COMPETENCES OF
VOCATIONAL EDUCATION STUDENTS****Aripjanova Mahfuza Akmalovna¹****¹Aripjanova Mahfuza Akmalovna**– Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
katta o'qituvchisi**Annotatsiya**

Maqolada professional ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, bugungi kunda professional ta'lim bitiruvchilariga qo'yilgan talablar, o'quvchilarning kasbiy kompetentligini aniqlash zaruriyati yoritilgan bo'lib, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Bog'ot texnikumining yengil sanoat yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan o'quvchilar o'rtasida kasbiy kompetensiyalar bo'yicha talablar tahlili o'tkazilgan. Olingan natijalar umumlashtirilib, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Аннотация

В статье освещаются проводимые реформы в сфере профессионального образования, требования, предъявляемые сегодня к выпускникам профессионального образования, необходимость определения профессиональной компетентности обучающихся, проведен анализ требований к профессиональной компетентности обучающихся по направлению легкой промышленности Багатского техникума при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности. Полученные результаты обобщены и даны рекомендации по развитию профессиональной компетентности.

Abstract

The article highlights the ongoing reforms in the field of vocational education, the requirements imposed today on graduates of vocational education, the need to determine the professional competence of students, the analysis of the requirements for the professional competence of students in the direction of light industry of the Bagat Technical School at the Tashkent Institute of Textile and Light Industry. The results obtained are summarized and recommendations for the development of professional competence are given.

Kalit so'zlar: professional ta'lim, kichik mutaxassis, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, yengil sanoat texnologiyasi, maxsus fan, axborot texnologiyasi, tasavvur kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya

Ключевые слова: профессиональное образование, младший специалист, компетенция, профессиональная компетенция, технология легкой промышленности, специальная предмет, информационные технологии, воображаемая компетенция, коммуникативная компетенция

Key words: professional education, junior specialist, competence, professional competence, light industry technology, special subject, information technology, imaginary competence, communicative competence.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy qadriyatlar ta'sirida modernizatsiyalash maqsadida 2020-yil 23-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonuni tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish va maktabdan tashqari ta'lim turlari orqali bilim olish belgilangan [1]. Bu ta'lim turlarida ta'limning sifati bitiruvchilarda bilim va vaziyatlar o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash hamda mazkur bilimlarini muammolarni yechishda anglangan holda qo'llanilishi kabi kasbiy kompetentligining shakllanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Professional ta'limni bitiruvchi kichik mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni shakllanganligi, ularni nafaqat mutaxassisliklarini yaxshi o'zlashtirganliklari balki uni hayotda qo'llay olishni bilishlari bilan belgilanadi.

Kompetensiya – bu mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati bo'lib, uning bir nechta turlari mavjud. Inson o'z hayotida o'z o'rnini egallashi, ya'ni

PEDAGOGIKA

shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy munosabatlarga kirishishi, hayotda o'z sohasi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lishi uchun bir qator kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR


“Kompetentsiya” atamalarining psixologik pedagogik mohiyati, shu bilan birga kompetent yondashuv masalalari E.F.Zeyer, I.A.Zimnaya, V.I.Baydenko, V.A.Kalney, A.P.Tryapitsina, Yu.G.Tatur, A.V.Xutorskiy, S.E.Shishov, N.A.Muslimov, S.Yu.Maxmudov, S.Sh.Sharipov, A.R.Xodjabaev, B.A.Nazarova, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari B.M.Bim-Bad, B.S.Gershunskiy, A.S.Zapesotskiy, B.T.Lixachev, N.D.Nikandrov, A.M.Novikov, V.D.Shadrikov kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda kompetensiya turlarini, shu jumladan, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi [2.39-40].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Professional ta'lim muassasalarining yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv buyumlari) mutaxassisligida tahsil olayotgan o'quvchilar bir vaqtning o'zida bir nechta kompetensiyalarni egallashlari talab etiladi. Ularda kompetensiyalarini shakllantirish orqali kelajakda respublikamiz rivojiga hissa qo'shadigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Buning uchun bo'lajak kichik mutaxassislarni kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni aniqlash lozim bo'ladi. Shu maqsadda Xorazm viloyati Bog'ot tumanida joylashgan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Bog'ot yengil sanoat texnikumining Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasi va texnologiyasi (tikuvchilik bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan 1 va 2-kurs o'quvchilaridan 30 nafari tanlab olindi va o'quvchilarning tasavvur va kommunikativ kompetensiyalar bo'yicha kasbiy kompetensiyalar bo'yicha fikrini o'rganish maqsadida so'rovnoma o'tkazildi.

So'rovnoma natijasida, o'quvchilarning 30% dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish, 40% maxsus fanlarni yaxshi o'zlashtirish, 15% tasavvur qobiliyati shakllangan bo'lishi, 15 % kommunikativlik shakllangan bo'lishi lozim degan xulosa olindi. (1-rasm).



1-rasm. Bo'lajak kichik mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar.

Bilamizki, har bir sohada bilim birinchi o'rinda turadi, mutaxassislik fanlarini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchigina kelajakda o'z kasbini ustasi bo'lib yetishadi. Shuning uchun, yengil sanoat sohasida ta'lim olayotgan o'quvchilar o'zlarida ushbu kasb ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishlari va yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni puxta egallashlari uchun maxsus fanlarni chuqur o'rganishlari kerak bo'ladi. So'rovnoma natijasidan ko'rish mumkinki o'quvchilar o'rtasida maxsus fanlarni o'zlashtirish yuqori ko'rsatkichni egallagan. Buning uchun yengil sanoat yo'nalishlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallashlari uchun maxsus fanlar o'qitishni to'g'ri tashkil qilish lozim deb hisoblaymiz.

So'rovnoma natijalariga ko'ra axborot texnologiyalarini bilish darajasi ikkinchi ko'rsatkichda turibdi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim

omillardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan, yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda. Bizga ma'lumki, axborot texnologiyalari o'z ichiga bir qancha tarmoqlarni oladi. Axborot texnologiyalari orqali olingan bilim inson xotirasida tez qoladi va o'rganilayotgan material oson o'zlashtiriladi. Bunga esa ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlarida fanning mohiyatini ochib beruvchi videodarslar, mobil ilovalar, telegramm botlar ishlab chiqish va ulardan foydalanish orqali erishish mumkin.

So'rovnomadani o'quvchilar tomonidan tasavvur va kommunikativ kompetensiyalarini mavjud bo'lishi teng ko'rsatkichni egallagan. Bundan ko'rinib turibdiki, yengil sanoat konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarda konstruktiv, texnik, ilmiy va badiiy tasavvur turlari shakllantirish lozim. Ularda tasavvur qobiliyatini shakllantirishda bugungi kundagi zamonaviy texnologiyalar, ya'ni texnik va dasturiy vositalar mahsuli bo'lgan video, matn, jadval, grafik, tovush, obyektlarning fazodagi harakati, animatsiyalardan, turli ko'rgazmali materiallar, tarqatma materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq [3.102].

Professional ta'lim muassasasini bitirib, yangi ishga borgan kichik mutaxassis kasbiga oid bilim va ko'nikmalarni yetarli darajada olgan bo'lsa-da, ish joyiga ko'nikishi uzoq vaqt davom etadi; shuning uchun ularga nafaqat bilim berish, balki ularning kompetensiyalarini shakllantirish lozim bo'ladi.

Professional ta'limning yengil sanoat yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchilar kelajakda tikuvchilik ishlab chiqarish korxonalarida (jamoalarda) rahbar, konstruktor-texnolog lavozimlarida faoliyat yuritadilar. Ular jamoada o'z o'rnilariga ega bo'lishlari uchun bir qator kompetensiyalarni o'zlashtirgan bo'lishlari lozim. Masalan, ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritish, xodimlar bilan o'zaro munosabatga kirishish, ularni rahbar sifatida boshqarish, ularga o'z fikrini to'g'ri bayon qila olish, tasavvurlaridagi voqelikni tushuntirib bera olishlari uchun ularning kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lishlari muhim sanaladi [2.41].

Professional ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish uchun bir qator omillarga ahamiyat berish tavsiya qilinadi. Kommunikativ kompetensiya o'z sohasini to'liq o'zlashtirish jarayonida, ishlab chiqarish amaliyotlarini o'tash davrida, jamoa a'zolari, ustozlar bilan muloqot o'rnatish jarayonida rivojlanadi. O'quvchilarni sohasi bo'yicha fanlarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun ularda og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, o'z fikrini bildira olish va uni himoya qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, turli vaziyatlarda o'z hissiyotlarini boshqara olish kabi ko'nikmalarni shakllantirish tavsiya etiladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, professional ta'lim o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qo'yiladigan talablar tahlili orqali ularni tanlagan yo'nalishlari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlariga erishish mumkin bo'lib, professional ta'lim o'quvchilari yuqori darajada tasavvur qobiliyati, kommunikativlik ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassis sifatida shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (Law of the Republic of Uzbekistan "On Education" No. O'RQ-637 of 23.09.2020.)

2. M.A. Aripjanova. "Professional ta'lim muassasalarida o'quvchi-larning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning mohiyati". "UzMU xabarlari" ilmiy jurnali. 2022 y 1.4-soni 39-41 b (M.A. Aripjanova. "Essence of formation of communicative competences of students in professional educational institutions". "UzMU news" scientific magazine. Issue 1.4 of 2022, pp. 39-41)

3. M.A. Aripjanova. "Professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishda o'quvchilarning tasavvur kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati". "Ilm sarchashmalari" jurnali 2022 y 5-soni. 101-103 b (M.A. Aripjanova. "The importance of developing imagination competence of students in teaching special subjects in professional educational institutions". "Ilm Sarkashmalari" magazine, 2022 issue 5. pp. 101-103)